

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.

Tel: (998-71) 208-56-01

e-mail: info@uzbekistonmet.uz

Web sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOIN STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”

42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent

Ph: (998-71) 208-56-01

e-mail: info@uzbekistonmet.uz

Web site: www.uzbekistonmet.uz

2026-yil 27-avgust

01-02-20/7895-son

“4YOU Tashkent” MChJga

(Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani,
Sayram MFY, Sayram ko‘chasi, 94-uy)

Gimalov Marat Rafailevichga

(gimalovmarat1988@gmail.com)

nusxa: **“Toshkent shahar MET” filialiga**

2026-yil 18-avgustdagi 05/26-sonli xat va

2026-yil 25-avgustdagi 722/26-sonli murojaatga javoban

Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani, Sayram MFY, Sayram ko‘chasi 94-uy hududida joylashgan, o‘rnatilgan quvvati **9100 kVt** bo‘lgan obyektni uzatish tizimiga ulash yuzasidan ishlab chiqilgan **“Tashqi elektr ta‘minoti sxemasi”** hisoboti (tahrir-2, 18.08.2026) ko‘rib chiqilib, quyidagi kamchilik va e‘tirozlar ma‘lum qilinadi.

– Hisob-kitoblar natijasida olingan normal va N–1 rejimlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar, jumladan: yuklama ulanmasdan oldingi rejim parametrlari, yuklama ulangandan keyingi kuchlanish va quvvat oqimlarining o‘zgarishi, qisqa tutashuv toklari jadval ko‘rinishida taqdim etilishi lozim;

– Hisob-kitoblarda olingan natijalarni tasdiqlovchi hisoblash ilovalari hisobotga ilova qilinmagan, shuningdek, L-Botanika-1,2 tarmog‘ini N–1 rejim ishonchliligini ta‘minlash doirasida kerak tavsiyalar berilib hisoblash ishlari bajarilib ilovalar qo‘shimcha tarzda taqdim etilsin;

– Hisobot tarkibida rele himoyasi va avtomatika (RHA) hamda telemexanika bo‘limlari taqdim etilmagan. Mazkur bo‘limlar amaldagi me‘yoriy hujjatlar talablariga muvofiq ishlab chiqilib, hisobot tarkibiga kiritilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan e‘tirozlar bartaraf etilib, “Tashqi elektr ta‘minoti sxemasi” hisoboti qayta ishlanganidan so‘ng belgilangan tartibda ko‘rib chiqish uchun taqdim etilishi so‘raladi.



Boshqaruv raisining
birinchi o‘rinbosari
B. Murodov

Ijrochi: ETUQQB

Telefon: (+99871) 236-62-23